


SURXONDARYO VILOYATIDA kichik tadbirkorlik

2018 yil yanvar-martida 959 dan ortiq yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 26,9 % ko'p demakdir.

Eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar sanoat tarmog'ida (14 %), savdo sohasida (25 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (16 %), qurilishda tarmog'ida (12 %), yashash va ovqatlanishda (8 %), tashish va saqlashda (4 %) tashkil etgan.

2018 yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



2018 yilning yanvar–martida kichik tadbirkorlik sub`ektlari tomonidan:

– sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 220,7 mlrd. so`mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 32,5 %) yoki 2017 yilning yanvar–martiga nisbatan o`sish sur`ati 100,5 %ni tashkil qildi;



– 227,0 mlrd. so`mlik investitsiyalar (umumiyligi investitsiyalar hajmining 22,1 %i) o`zlashtirildi va 2017 yilning yanvar–martiga nisbatan o`sish sur`ati 110,2 %ni tashkil qildi;



– 355,4 mlrd. so`mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 87,2 %) bajarildi va 2017 yilning yanvar–martiga nisbatan o`sish sur`ati 92,2 % ni tashkil qildi;



– 878,5 mlrd. so`mlik xizmatlar ko`rsatilib (jami xizmatlar hajmining 73,8 %), 2017 yilning yanvar–martiga nisbatan o`sish sur`ati 101,5 % ni tashkil qildi;



– chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 91,6 % yoki 1645,9 mlrd. so`mi (o`sish sur`ati 0,9 % ni tashkil qildi) shakllantirildi;

– 19,3 mln. AQSh dollari (umumiyligi eksport hajmining 69,5 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, bu esa 2017 yilga nisbatan 0,7 mln. AQSh dollariga yoki 4,0 % ga ko`p;




– avtomobil transporti yuk aylanmasining 4,9 %ga (jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 85,6 %i) ko`payishi ta`minlandi;


– yo`lovchi aylanmasining esa 2,7 % ga (umumiyligi yo`lovchi aylanmasining 96,6 %) ko`payishi ta`minlandi;

Hududlar bo`yicha eng ko`proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Termiz shahri (31,1 mlrd.so'm), Denov (29,1 mlrd.so'm) va Jarqo`rg`on (27,7 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to`g`ri keladi.


Kichik tadbirkorlikning ulushi (umumiyligi hajmiga nisbatan % da)



2018 yil yanvar-martida hududlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va sur'ati




2018 yil yanvar-martida hududlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va sur'ati



Hududlar bo'yicha ko'proq chakana tovar aylanmasi hajmi Denov tumani (374,9 mlrd.so'm), Termiz shahri (293,9 mlrd.so'm) va Sho'rchi (154,7 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

2018 yil yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va sur'ati



Hududlar bo'yicha ko'proq xizmatlar hajmi Termiz shahri (214,1 mlrd.so'm), Denov (176,1 mlrd.so'm) va Qumqo'rgon (53,1 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

**2018 yil yanvar-martida kichik tadbirkorlikning
hududlar bo`yicha ulushi
(% da)**

	<i>Sanoat</i>	<i>Qurilish</i>	<i>Xizmatlar</i>
Surxondaryo viloyati bo`yicha	32,5	87,2	73,8
Termiz shahri tumanlar:	30,6	97,3	43,8
Angor	25,0	100,0	94,0
Boysun	99,9	100,0	92,9
Denov	28,0	100,0	95,0
Jarqo'rg'on	20,4	100,0	90,0
Qumqo'rgon	25,8	64,6	97,3
Qiziriq	17,4	96,1	98,8
Muzrabot	33,0	100,0	96,7
Oltinsoy	100,0	100,0	97,4
Sariosiyo	48,4	48,6	95,0
Termiz	98,8	100,0	92,6
Uzun	55,5	100,0	96,3
Sherobod	41,9	61,2	91,4
Sho'rchi	18,1	100,0	95,1

Hududlar bo`yicha sanoat sohasining yuqori ulushini Oltinsoy (100,0%), Boysun (99,9 %) va Termiz (98,8 %) tumanlari tashkil etadi.

Xizmatlar sohasida Qiziriq (98,8%), Oltinsoy (97,4 %) va Qumqo'rg'on (97,3 %) tumanlari tashkil etadi.


Qurilishda Termiz (100,0%), Jarqo'rg'on (100,0 %) va Denov (100,0 %), tumanlari tashkil etadi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha 2018 yil I- chorak yakunlariga ko`ra, yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuvalar o`tkazildi. Unda 62 dan ortiq respondentlar ishtirok etdi.

Kuzatuv ma`lumotlari tahlili, respondentlarning 40,3 % iqtisodiy vaziyatni – qulay va 48,4 % esa qoniqarli deb hisoblashini, mos ravishda qurilishda va savdo sohasida – 42,8 % va 47,1 %, xizmatlar sohasida – 36,8 % va 57,8 %, qishloq, o`rmon va baliqchilik xo`jaligida – 40,0 % va 40,0 %, sanoatda – 33,3 % va 44,4 % ni tashkil qilganini ko`rsatdi.


Joriy iqtisodiy vaziyatga pessimistik ruhda yondashganlar qurilishda – 14,3 %, savdoda – 5,8 %, qishloq, o`rmon va baliqchilik xo`jaligida – 20,0 %, xizmatlarda – 5,4 %, sanoatda – 22,2 %, ni tashkil qildi.

Iqtisodiy vaziyatni baholash 2018 yil I–chorak uchun



Iqtisodiy vaziyat yaxshilanishi yaqin uch oyda 88,8 % sanoat korxonalari, 76,4 % – savdo, 94,7 % – xizmatlar, 100,0 % – qishloq, o`rmon va baliqchilik xo`jaligi va 85,7 % – qurilish tarmog`ida kutilmoqda.

Iqtisodiy vaziyatdagi o`zgarishlar istiqbolini yaqin uch oyda baholanishi



Tahlil natijalaridan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yaxshilash uchun ko'rilibotgan chora tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiy iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobjiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.